



MATEMATIKA TA'LIMIDA MEDIA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdupattayev Xasanboy Abdurahmonovich

Qo'qon Davlat Universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Akramova FotimaiZahro Adhamjonovna

Qo'qon Davlat Universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematika ta'limida media savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati va o'qitish jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Media vositalar yordamida darslarni interaktiv, vizual va muammoli yondashuv asosida tashkil etishning samaradorligi ilmiy maqolalar, tajriba natijalari hamda amaliy misollar asosida asoslab berilgan. Shuningdek, o'quvchilarda tangidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish va matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishda media savodxonlikning roli ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: media savodxonlik, matematika ta'limi, raqamli texnologiyalar, metodika, o'quvchi faolligi, innovatsion dars.

Annotation

This article analyzes the pedagogical significance of developing media literacy in mathematics education. It explains the effectiveness of organizing lessons using media tools based on interactive, visual, and problem-based learning approaches. The study highlights the role of media literacy in improving students' critical thinking and problem-solving skills.



Keywords: media literacy, mathematics education, digital learning technologies, learning efficiency, interactive methods, innovative lesson, critical thinking, digital competence in education.

Аннотация

В статье рассматривается педагогическое значение развития медиаграмотности в преподавании математики. Показана эффективность использования медиа-средств в интерактивных и наглядных формах обучения, а также роль медиаграмотности в формировании у учащихся навыков анализа и решения математических задач.

Ключевые слова: преподавание математики, медиа-средства, цифровые технологии, деятельность учителя, качество урока.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida media savodxonlik tushunchasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Ta'lim sohasiga raqamli tenologiyalar kirib kelishi natijasida o'quchilarning axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, uni tahlil qilish, baholash va ongli ravishda qollash ehtiyoji kuchaydi. Ayniqsa, matematika ta'limida media savodxonlik o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli darslarda media vositalardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mavzuni chuqurroq anglash hamda ularni faol o'quv jarayoniga jalb qilish imkonini yaratadi.

1. Media savodxonlikning mazmuni va uni matematika ta'limiga tatbiq etish



Media savodxonlik - bu shunchaki texnologiyadan foydalanish emas, balki axborotni anglash, tahlil qilish, gayta ishlash va maqsadga muvofiq qollay olish ko'nikmasidir. Matematika fanida media savodxonlik quidagi imkoniyatlarni beradi; matematik jarayonlarni grafik modellar orqali ko'rsatish; mavzularni interaktiv misollar bilan mustahkamlash; o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini kuchaytirish; murakkab amallarni vizual dasturlar yordamida soddalashtirish.

2. Matematika darslarida media vositalardan foydalanish metodikasi

Media texnologiyalar darning uslubiy jihatdan boyitadi. Dars quyidagi tartibda tashkil etilganda maksimal samaradorlikka erishiladi:

1. Kirish bosqichi: videorolik yoki vizual muammoli savol berish.
2. Yangi mavzuni tushuntirish: interaktiv simulyatsiyalar yordamida.
3. Amaliy mashqlar: onlayn test yoki grafik tahlil platformalarida bajarish.
4. Mustahkamlash: guruh yoki individual tahlil, taqdimot.
5. Baholash: avtomatlashtirilgan test tizimlari orqali.

Bu jarayon o'quvchini foydalanuvchi, o'qituvchini esa jarayon boshqaruvchisiga aylantiradi.

3. Media savodxonlikning o'qituvchi faoliyati va dars sifati uchun ahamiyati

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- interaktiv texnologiyalardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi 30-40% ga oshadi;
- mavzuni o'zlashtirish darajasi 2 baravar yuqori boladi;



- o'qituvchining darsga tayyorgarlikka ketadigan vagti kamayadi, lekin natija yanada samaraliroq boladi.

Xulosa gilib aytganda, media vositalar va zamonaviy texnologiyalar matematika ta'limining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ular yordamida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. O'qituvchining esa darsni innovatsion asosda tashkil etish, ta'lim jarayonini interaktiv va samarali yolga qo'yish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, har bir o'qituvchi media savodxonlikni egallashi va raqamli texnologiyalarni o'z dars amaliyotiga tatbiq etishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch"
 - Toshkent,2008.
2. Abduraxmonova M., Shodiev B. "Axborot texnologiyalari va ularni ta'limda qo'llash".
 - Toshkent, 2021.
3. Qo'qon davlat universiteti elektron kutubxonasi materiallari, 2024.
4. www.edu.uz - O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.
5. www.geogebra.org - Matematika uchun interaktiv media